



JINOYAT ISHLARIDA EKSPERTIZA TAYINLASH VA ÓTKAZISHDA ADVOKATNING PROTSESSUAL ÓRNI

Umbetbayeva Ayzada Saylaubay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Magistratura bólimi
Advokatlik faoliyati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18280186>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 13-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 17-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

ekspertiza, ekspert xulosasi, advokat, himoya huquqi, jinoyat protsessi, dalillar, qóshimcha ekspertiza, qayta ekspertiza.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Ózbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-bobida nazarda tutilgan ekspertiza tergov harakati doirasida advokatning protsessual órni, huquq va majburiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ekspertiza tayinlash, ekspertni tanlash, ekspert oldiga savollar qóyish hamda ekspert xulosasini baholash jarayonida himoyachining faol ishtiroki himoya huquqini ta'minlashning muhim kafolati sifatida yoritiladi. Maqolada ekspert xulosasining dalil sifatidagi ahamiyati, unga nisbatan tanqidiy yondashuv zarurati hamda qóshimcha va qayta ekspertiza tayinlash masalalarida advokatning tashabbuskorligi asoslab beriladi

Jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda kórib chiqish jarayonida haqiqatni aniqlash kóp hollarda maxsus bilimlarni talab etadi. Bunday holatlarda ekspertiza tergov harakati jinoyat protsessining ajralmas instituti sifatida namoyon bóladí. Ózbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi órinlarda — JPK) 22-bobi aynan ekspertiza tayinlash va ótkazish bilan bog'liq protsessual munosabatlarni tartibga soladi.

Ekspertiza natijasida tuziladigan ekspert xulosasi jinoyat ishidagi muhim dalillardan biri bólib, u tergovchi va sud tomonidan boshqa dalillar qatori tekshirilishi va baholanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ekspertiza jarayonida advokatning faol va bilimli ishtiroki ayblanuvchining konstitutsiyaviy himoya huquqini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat protsessida himoya funksiyasi faqat sud majlisida emas, balki tergov bosqichidayoq tóliq amalga oshirilishi lozim. Ekspertiza tayinlash va ótkazish bosqichi aynan shunday muhim protsessual pallalardan biri hisoblanadi. Agar advokat ekspertiza jarayonida passiv pozitsiyani egallasa, ayblov tomonining xulosalari ustunlikka ega bólib, ish bóyicha biryoqlama yondashuv yuzaga kelishi mumkin.

Advokatning vazifasi ekspertiza natijalarini shunchaki qabul qilish emas, balki ularni tanqidiy baholash, protsessual tartibga rioya etilganligini tekshirish va zarur hollarda e'tiroz bildirishdan iboratdir. Chunki JPKga muvofiq, ekspert xulosasi oldindan belgilangan kuchga ega emas va u boshqa dalillar bilan birgalikda baholanadi.

Tergov yoki sud jarayonida turli xil ekspertizalar ótkazilgan jinoyat ishlarida advokatning ekspert xulosalariga tóg'ri yondashuvi himoyaning samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

Ba'zi advokatlar ekspertizani ish bóyicha benuqson dalil sifatida qabul qilib, undagi ma'lumotlarni tekshirmasdan, shubhasiz dalil sifatida qabul qiladilar. Bunday yondashuv notóg'ridir, chunki ekspertiza xulosasi oddiy dalillar qatoridan joy olgan dalil sifatida tergovchi va sud tomonidan tekshirilib, tahlil etilishi lozim. Óz ishiga astoydil yondashgan advokatlar himoya jarayonida ayblovning asoslangan ekspert xulosasini yetarli darajada puxta emasligini yoki umuman asossizligini isbotlashga erishganlar. Ammo bu natija advokat tomonidan olib borilgan puxta tahlil, tayyorgarlik va dalillarni baholash jarayonining mahsulidir.

Agar ish yuzasidan ekspertiza tayinlanayotgan yoki ótkazilgan bólsa, advokat ishda ekspert xulosasidan tashqari yana uchta muhim protsessual hujjatni tekshirib chiqishi zarur. Bular: a) ekspertiza tayinlash haqidagi qaror; b) ekspertiza tayinlash haqidagi qaror bilan ayblanuvchining tanishuv bayonnomasi; v) ekspert xulosasi bilan ayblanuvchining tanishuv bayonnomasi¹. Advokat ushbu hujjatlarning mavjudligini aniqlab, har biri bilan sinchkovlik bilan tanishib, ularning asosli va qonuniy tuzilganligini tekshiradi. Aynan shu hujjatlarni tahlil etish himoyaning samaradorligini ta'minlaydi.

Ekspertiza jinoyat ishidagi ayrim holatlarni aniqlash uchun fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohalariga oid bilim va malakaviy kónikmalar zarur bólgan hollarda tayinlanadi. U turli moddiy narsalar (masalan, odam, ashyoviy dalil) yoki holatlarni (masalan, shaxsning ruhiy holati, hodisaning yuz berish mexanizmi va hokazolarni) tekshirish orqali tóg'ri xulosa chiqarish uchun zarur. Ekspertiza idoraviy fikr-mulohazalardan farq qilib, u xolis, yuqori malakali shaxs yoki maxsus komissiya tomonidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud qaroriga asosan, JPKning 172–187-moddalariga muvofiq tayinlanadi².

Agar advokat yoki himoyasidagi shaxs ekspertiza tayinlanishi zarurligini aniqlasa, u ekspertiza tayinlash tóg'risida iltimosnoma bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga murojaat qiladi. Ushbu iltimosnomada advokat ishning qisqacha mazmuni, ekspertiza ótkazish asoslari, ekspert turi, ekspertga berilishi lozim bólgan savollar va ularni tóliq hamda malakali tarzda bajara oladigan ekspertiza muassasasi nomini kórsatishi lozim.

Ekspertni tanlashda advokat uning malakasi, xolisligi va JPKning 78-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarga tóliq mos kelishini tekshiradi.³ Masalan, agar ekspert ilgari aynan shu ish bóyicha tergovchi, prokuror yoki idoraviy tekshiruvchi sifatida ishtirok etgan bólsa yoki ish ishtirokchilarining yaqin qarindoshi bólsa, u holda bunday ekspertni rad etish lozim.

Ekspert oldiga qóyiladigan savollar aniq, qisqa va mutaxassislik doirasiga mos bólishi kerak. Noaniq, mavhum yoki ekspert malakasiga aloqador bólmagan savollar notóg'ri, chalkash yoki nisbiy javoblarga olib keladi. Shu bois advokat savollarni himoyasidagi shaxs manfaatlari nuqtai nazaridan aniqlik va mantiq asosida tuzishi lozim.

Ekspert xulosasini tahlil etish jarayonida advokat quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratadi:

¹ Саломов Б., Жиноят ишларида адвокатнинг иштироки. Амалий қўлланма. Тошкент: «Адолат», 2007, 472 б.

² <https://lex.uz/mact/-111460>

³ <https://lex.uz/mact/-111460>

1. ekspertiza xulosasining bayonot-tasvirlash qismi bilan uning yakuniy xulosasidagi fikrlarning ózaro muvofiqligiga;
2. ekspertning yetarli kasbiy va nazariy bilimlarga ega ekanligiga;
3. ekspert tomonidan tanlangan ilmiy usulning tóg'riligiga;
4. ekspert tayinlash qarorida kórsatilgan barcha savollarga tóliq javob berilganligiga.

Shuningdek, ekspert xulosasi bilan tanishuvni uning yakuniy qismidan boshlash lozim. Bu himoyachiga xulosa mazmunining himoya ostidagi shaxs manfaatiga salbiy yoki ijobiy ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Agar ekspert xulosasi yetarli darajada asoslanmagan bólsa, qarama-qarshi xulosalarni óz ichiga olsa yoki yangi holatlar aniqlansa, advokat qóshimcha yoki qayta ekspertiza tayinlash tóg'risida iltimosnoma kiritishga haqli. Bu himoya taktikasining muhim elementi bólib, sudda adolatli qaror qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekspertiza tergov harakati doirasida advokatning faol, tashabbuskor va tanqidiy pozitsiyasi jinoyat protsessida himoya huquqining real ta'minlanishiga olib keladi. Ekspert xulosasiga nisbatan puxta tahlil, protsessual hujjatlarni tekshirish hamda zarur hollarda qóshimcha yoki qayta ekspertiza tayinlash masalasini kótarish advokatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 732 b.
2. Саломов Б., Жинойт ишларида адвокатнинг иштироки. Амалий қўлланма. Тошкент: «Адолат», 2007, 472 б.
3. <https://lex.uz/mact/-111460>
4. M.X.Kadirova. Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash [Matn] o'quv qo'llanma /-T.:TDYuU nashriyoti, 2024y
5. B.A.Rajabov-III –bo'lim (6-mavzu)-106 bet. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik //D.M.Mirazov, B.N.Rashidov, Sh.A.Qulmatov va boshq. –T.. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.-333b.